

I.I.Xudayberdiyev
TDSHU tayanch doktranti

AFG‘ONISTON VA POKISTON MUNOSABATLARIDA AFG‘ON QOCHQINLARI OMILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi afg‘on muhojirlarining kelib chiqish tarixi va munosabatlarning buzilishi dalillar asosida ochib berilgan. Shuningdek, afg‘on qochqinlarining hozirgi kundagi holati tadqiq qilingan. Maqolada xorijiy manbalar va UNHCRning monitoring ma’lumotlaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: Afg‘oniston, Pokiston, afg‘on qochoqlari, Dyurand chizig‘i, pashtunlar, balujlar, migratsiya, sotsiolizm, UNHCR.

Abstract. In this article, the history of the origin of Afghan immigrants and the breakdown of relations between Afghanistan and Pakistan is revealed on the basis of evidence. Also, the current situation of Afghan refugees was investigated. The article uses monitoring data from foreign sources and UNHCR.


Key words: Afghanistan, Pakistan, Afghan refugees, Durand line, Pashtuns, Baloch, migration, socialism, UNHCR.

Аннотация: В данной статье на основе доказательств раскрывается история происхождения афганских иммигрантов и разрыв отношений между Афганистаном и Пакистаном. Также было изучено текущее положение афганских беженцев. В статье используются данные мониторинга из зарубежных источников и УВКБ ООН.

Ключевые слова: Афганистан, Пакистан, афганские беженцы, линия Дюрана, пуштуны, белуджи, миграция, социализм, УВКБ ООН.

Afg‘oniston va Pokiston munosabatlaridagi siyosiy beqarorlik ikki davlat o‘rtasidagi muammolar siyosiy qochqinlar va muhojirlar bilan ham bog‘liqdir. Ushbu muammo tarixdan hozirgi kungacha dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Migratsion jarayon ilmiy adabiyotlarda aholi yashash joyini o‘zgartirishi bilan izohlanadi. Lekin ushbu jarayon mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, xavfsizlik sohalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. 1893-yilda Mortimer Durand va Afg‘oniston amiri Abdurahmon o‘rtasida imzolangan shartnoma¹ Afg‘oniston va Pokiston chegara hududida yashaydigan Pashtun va Baluj etnik birliklarini ajratib qo‘ydi. (shimolda pashtunlar, janubda balujlar)


¹ Diplomat Why the Durand Line Matters 21. 2014. <https://thediplomat.com/2014/02/why-the-durand-line-matters/>



Janubiy Osiyo migratsiyasi bo'yicha mutaxassis, siyosatshunos Sanaa Alimianing tadqiqotlariga ko'ra, 1947-1970-yillar oralig'ida chegara asosan savdogarlar va qarindoshlik aloqalariga ega shaxslar tomonidan kesib o'tilgan. Afg'onistonning Pokistonga katta oqim bilan harakatlanishi 1973-yil Muhammad Dovudxonning armiya yordamida hukumatga kelishidan boshlangan. Chunki Muhammad Dovudxonning olib borgan sotsiolistik ruhdagi siyosati natijasida bir necha ming afg'onlar Pokiston hududiga, oz miqdordagi afg'onlar Yevropa davlatlariga chiqib ketishgan. Pokistonga afg'onlarning navbatdagi oqimi 1979-yil Savr inqilobi voqealari natijasida ro'y bergan. Afg'oniston hukumati Sovet ittifoqi tomonidan boshqarilishi, hukumat va mujohid guruhlar o'rtasidagi qarama-qarshilik afg'onlarning Pokistonga o'tishi uchun sabab bo'ldi. 1979-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti afg'on qochqinlarini nazorat qilish, maqsadida Pokistonda UNHCR (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlari bo'yicha Oliy Komissiyasi) vakolatxonasini ochdi. 1979-yil oxiriga kelib Pokistonda 400 000 dan ortiq afg'onlar mavjud edi².

² Alimia, S., Afghan Refugees in Pakistan, bpb, 5 june 2019, <https://www.bpb.de/themen/migration/integration/laenderprofile/english-version-country-profiles/292271/afghan-refugees-in-pakistan/>

Islomobod hukumati afgʻon qochoqlarini keyinchalik geosiyosiy va strategik maqsadlarda foydalanish uchun qabul qilishni davom ettirdi. Shuningdek, Pokiston qochoqlar uchun sharoit yaratish maqsadida xalqaro hamjamiyatdan moliyaviy koʻmak oldi. 1978-2001-yillar oraligʻida Afgʻoniston aholisining uchdan bir qismi Pokistonga oʻtgan³. Ammo tadqiqotchi M.B.Fieldenning yozishicha moliyaviy yordamning uchdan bir qismi muholifat guruhlarning taʼminoti uchun sarflangan⁴. 1989-yilda Sovet qoʻshinlari Afgʻoniston hududidan chiqib ketdi. Ammo afgʻon qochqinlarining sharq tomon migratsiyasi toʻxtamadi. BMTning yordami natijasida Pokiston afgʻon qochoqlarini boshpana bilan taʼminlashni davom ettirdi. Pokistonga koʻrsatilayotgan yordam 1980-yillarga nisbatan kamayib bordi. Natijada Pokiston hukumati afgʻonlarga qochoq maqomini berishi uchun yetti mujohid partiyalardan biriga aʼzo boʻlish talabi qoʻydi. 2002-yilga kelib bu jarayon UNHCR tomonidan toʻxtatilgan. Human Rights Watch tashkilotining maʼlumotlariga qaraganda, 1999-yil oxiridan boshlab Pokistonga kelgan afgʻonlarga qochoqlar maqomini berishni bekor qilish taklifini berdi⁵. AQShning “Foreign Policy” jurnalining xabar berishicha, Pokiston 2007 yildan beri yangi qochoqlarni roʻyxatga olmagan⁶. 2006-yilgacha Afgʻon qochqinlari Pokistonda hujjatsiz yurishga ruxsat berilgan. Lekin, 2007-yildan boshlab UNHCR va Pokiston hukumati bilan birgalikda qochoqlarni roʻyxatga olish kartalarini yoʻlga qoʻydi. Pokistonda 3 toifadagi afgʻonlar: roʻyxatga olingan qochoqlar (karta egalari), roʻyxatga olinmagan qochoqlar (hujjatsiz afgʻonlar), Afgʻoniston fuqaroligiga ega qochoqlar.



Qochqinlar muammosi Afgʻoniston va Pokiston oʻrtasidagi xavfsizlik sohasida ham islohotlar oʻtkazishga majbur qilmoqda. Afgʻoniston hukumatining

³ Emery, M., and Ruiz, H., Afghanistan's Refugee Crisis, Middle East Report Online, 24 september 2001, <https://merip.org/2001/09/afghanistans-refugee-crisis/>

⁴ Fielden, M.B., The geopolitics of aid: the provision va termination of aid to Afghan refugees in North West Frontier Province, Pakistan, May 1998, http://afghandata.org:8080/xmlui/bitstream/handle/azu/3920/azu_acku_pamphlet_hv385_6_f545_1998_w.pdf?sequence=1

⁵ Human Right Watch, Closed Door Policy: Afghan Refugees in Pakistan and Iran, February 2002, <https://www.hrw.org/report/2002/02/27/closed-door-policy/afghan-refugees-pakistan-and-iran>

⁶ Foreign Policy Afghan Refugees Get Cold Welcome in Pakistan 22 November 2021, <https://foreignpolicy.com/2021/11/22/afghanistan-refugees-pakistan-taliban-border/>

maʼlumotlariga koʻra, qochqinlar bilan birgalikda terroristok guruhlarining aʼzolari Pokiston hududiga oʻtishi va qochqinlar orasidagi yashirinishi mumkinligini bildirgan. Oslodagi Tinchilik tadqiqotlar instituti professori Kristian Berg Harpvikenning bergan maʼlumotlariga koʻra, Tolibon yetakchilarining kelib chiqishi afgʻon qochoqlari bilan bogʻliq deb hisoblaydi⁷. Tolibon harakati Pokistonning qoʻllab quvvatlashi va afgʻon qochoqlaridan oʻz manfaatlari yoʻlida foydalangan.

2001-yil Tolibon hokimiyatining agʻdarilishi Afgʻonistonga qochoqlarning qaytish toʻlqinini keltirib chiqardi. UNHCRning monitoringiga koʻra 2002-yilda Pokistondan 1,5 million, keyingi yillarda 300000, 2006-yilda 133000, 2014-yilda 13000 nafar qochoqlar Afgʻonistonga qaytgan⁸. Tolibon harakati aʼzolari ham qochoqlar orasida xavfsiz hududlarni qidirib topishga harakat qilishdi. 2013-yilda Afgʻoniston va Pokiston chegaralarida jangarilar harakatlarini nazorat qilish, giyohvand moddalarning kontrbandasiga qarshi kurashish maqsadida Balujistonning janubi gʻarbiy qismidan 1100 kilometrlik chegara handaqlarini kavlash (chuqurligi ikki metr, eni uch metrdan ortiq) loyihasi amalga oshirildi. Pokiston 2014-yilda 480 kilometrni, 2016-yilga kelib ushbu loyihani yarmi tugadi⁹. 2017-yilda Pokiston kuzatuv kameralari va zanjirli toʻsiqlar oʻrnatishni boshladi. 2022-yil 5-yanvar holatiga koʻra 94 foizi chegara hududi oʻralgan¹⁰.

2020-yil 17-fevral kuni Afgʻonistonning ikkinchi vitse prezidenti Sarvar Donish Islomobodda afgʻon qochqinlari boʻyicha oʻtkazilgan konferensiyada jangarilarni qochqinlar orasida yashiringani va qochqinlarni yollash holatlari mavjudligini bayon qildi. Washington Post gazetasining maʼlumotlariga qaraganda 2021-yil Toliblar hukumatga kelgandan keyin minglab Tolibon tarafdorlari oqimi paydo boʻldi. Pokistondan kelganlar soni 5000 dan 10000 gacha boʻlishi taxmin qilingan. Tolibon hukumati oldingi ish oʻrinlarini toʻldirish maqsadida Pokistonda yashayotgan sobiq tolibon jangarilari va surgundagi Afgʻoniston hukumati xodimlarini ish bilan taʼminlamoqda. Masalan, Haqqoniy tarmogʻi asoschisi Sirajuddin Haqqoni xavfsizlik va ichki ishlar vaziri etib tayinlandi. Afgʻonistondagi Tolibon hukumatining asosiy vakillari Pokistondagi Dorul Ulum Haqqoniya madrasasini bitirgan. Afgʻoniston boʻyicha koʻplab maqollarlar muallifi Abubakr Siddiqning yozishicha, Yangi Tolibon hokimiyati hozirgi mavqeyiga qaramasdan Pokiston nazoratida ekanligini taʼkidladi¹¹.

Pokistondagi afgʻonlarning asosiy qismi Pokistonda tugʻilib oʻsgan va Afgʻoniston davlatini koʻrmagan. 6062 nafar qochqinning 65% Pokiston hududida 10 yildan ortiq yashayotganligi 32% esa tugʻilganliklarini bildirgan. 2019-yil BMTning qochqinlar boʻyicha komissiyasining monitoringiga koʻra afgʻonlarning qaytishi sezirali darajada kamaygan (2020 yil 1092 kishi, 2021yil 437 kishi) 2022 yil fevral-

⁷ Harpviken Berg, K., The Afghan Taliban and Mujahedin: Archetypes of refugee militarization, bpb, 23 January 2019

⁸ Express Tribune (The), Pakistan's Afghan refugees: A timeline, 5 October 2016,

⁹ Wire (The), Pakistan-Afghanistan Ties Come Under Strain After Taliban Opposes Border Fencing, 11 January 2022,


¹⁰ Associated Press of Pakistan, Pakistan-Afghanistan Border internationally recognized; fencing to be completed at all costs: DG ISPR, 5 January 2022

¹¹ New York Times (The), The Taliban Have Staffing Issues. They Are Looking for Help in Pakistan, 13 January 2022

avgust oraligʻida 35 289 nafarga yetgan. Albatta, bu koʻrstakich Toliblarning hokimiyatga kelishi bilan bogʻliq.

2022-yil yanvar holatiga koʻra Pokistonda yashovchi 3 millionga yaqin afgʻonning 1,4 millionga yaqini roʻyhatga olingan qochoqlar 840 000 nafari, afgʻoniston fuqorolari va 775 000 yaqini roʻyhatga olimagan (hujjatsiz) qochoqlardir. Pokiston 2021-yil avgust oyidagi xabariga koʻra Pokiston chegara mintaqalar vazirligi hujjatsiz afgʻonlar sonini 300 000 dan 400 000 gacha boʻlishini mumkinligini bildirgan. Pokiston Inson huquqlari jamyati bosh direktori qochqinlar boʻyicha yetarlicha maʼlumot yoʻqligini, hozirda Karachi shahrining oʻzida 3 milliondan ortiq afgʻonlar borligi haqidagi bayonotlarni bergan.

UNHCRning roʻyhatdan oʻtgan qochqinlar soniga toʻxtaladigan boʻlsak, 2021-yil 31-avgust holatiga koʻra 1 435 026 nafar migrantlar Pokistonda istiqomat qiladi. Mintaqaviy taqsimotga koʻra, ulardan eng koʻp roʻyxatga olingan afgʻon qochqinlari Xayber-Paxtunxva viloyatida (834 381 kishi, taxminan 58%), undan keyin Baluchiston viloyatida (326 932 kishi, taxminan) joylashgan. 23 %) va Panjob viloyati (168 342 kishi, taxminan 12 %). Yuqoridagi maʼlumotlarga eʼtibor beradigan boʻlsak, afgʻon migrantlarining asosiy qismi Pokistonning chegara viloyatlariga oʻtishgan. Afgʻonlarning Pokiston hududiga oson va tez oʻtishining sababi mamlakatning ikki tomonida ham bir xil etnik guruh vakillarining mavjudligidir. Bu esa oʻz navbatida boshqa bir muammolarni keltirib chiqaradi.



Afgʻoniston va Pokiston oʻrtasidagi qochoqlar muammosini hal qilish uchun, dastlab hududiy va xavfsizlik bilan bogʻliq muammolarni hal qilish zarur hisoblanadi. Bu oʻz navbatida har ikki davlatning manfaatlariga xizmat qiladi. Tarixdan hozirgi kungacha sodir boʻlgan siyosiy jarayonlar afgʻon xalqini dunyoning turli davlatlariga uloqtirib tashladi. Hozirgi kunda afgʻon muhojirlari Pokistondagi ijtimoiy va iqtisodiy

hayotning faol qismidir. Shunday qilib, mintaqaviy geosiyosat afgʻon qochqinlarining Pokistondagi oʻrnini tushunish uchun kalit hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Diplomat Why the Duran Line Matters 21. 2014.
2. Alimia, S., Afghan Refugees in Pakistan, bpb, 5 june 2019
3. Emery, M., and Ruiz, H., Afghanistan`s Refugee Crisis, Middle East Report Online, 24 september 2001
4. Fielden, M.B., The geopolitics of aid: the provision va termination of aid to Afghan refugees in North West Frontier Province, Pakistan, May 1998,
5. Human Right Watch, Closed Door Policy: Afghan Refugees in Pakistan and Iran, February 2002
6. Foreign Policy Afghan Refugees Get Cold Welcome in Pakistan 22 November 2021,
7. Harpviken Berg, K., The Afghan Taliban and Mujahedin: Archetypes of refugee militarization, bpb, 23 January 2019
8. Express Tribune (The), Pakistan's Afghan refugees: A timeline, 5 October 2016
9. Wire (The), Pakistan-Afghanistan Ties Come Under Strain After Taliban Opposes Border Fencing, 11 January 2022,
10. Associated Press of Pakistan, Pakistan-Afghanistan Border internationally recognized; fencing to be completed at all costs: DG ISPR, 5 January 2022
11. New York Times (The), The Taliban Have Staffing Issues. They Are Looking for Help in Pakistan, 13 January 2022